

2. Reformatskiy A.A. *Vvedeniye v yazykovedeniye*. Moskva, 1996.
3. Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi*. Toshkent, 2010.
4. Nurmonov A. *Tilshunoslik nazariyasi*. Toshkent, 2012.
5. Crystal D. *English as a Global Language*. Cambridge, 2003.
6. Haugen E. *The Ecology of Language*. Stanford, 1972.
7. Fasold R. *The Sociolinguistics of Language*. Oxford, 1990.
8. Karimov B. *O'zbek tilida o'zlashma so'zlar tadqiqi*. Toshkent, 2018.
9. Weinreich U. *Languages in Contact*. New York, 1953.
10. Thomason S., Kaufman T. *Language Contact, Creolization and Genetic Linguistics*. Berkeley, 1988.
11. Holmes J. *An Introduction to Sociolinguistics*. London, 2013.

---

**O'ktamova Moxigul Xamidullo qizi**, FarDU katta o'qituvchisi,  
[uktamovamoxigul@gmail.com](mailto:uktamovamoxigul@gmail.com)

**To'ychiyeva Dilnozaxon Qodirjon qizi**, FarDU talabasi,  
[toychiyevadilnoza@gmail.com](mailto:toychiyevadilnoza@gmail.com)



---

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OMONIMLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILLI

<https://zenodo.org/records/19842397>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi omonimlarni taqqoslashga qaratilgan. Maqolada omonimlar, homofonlar va homografalar tushunchalari, ularning leksik ma'nosi va polisemiya bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Ingliz va o'zbek tillaridagi semantik farqlar, so'zlarning yozilishi va talaffuzi jihatidan o'xshashlik va farqlar ko'rsatib berilgan. Qiyosiy lingvistik nuqtai nazaridan, maqola til o'rganish va lug'at boyligini oshirishda omonimlarni tushunishning ahamiyatini yoritgan. Shu bilan birga, maqola o'quvchilar va tilshunoslar uchun amaliy misollar bilan boyitilgan.

**Kalit so'zlar:** Omonimlar, homografalar, homofonlar, leksik ma'no, semantik farq, taqqosiy lingvistik

### АНАЛИЗ ОМОНИМОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

**Аннотация:** Данная статья посвящена сравнительному анализу омонимов в английском и узбекском языках. В работе рассматриваются понятия омонимов, омофонов и омографов, а также их связь с лексическим значением и полисемией. Исследование выявляет сходства и различия в написании, произношении и семантических особенностях омонимов в обоих языках. С точки зрения сравнительной лингвистики подчеркивается важность понимания омонимов в процессе изучения языка и расширения словарного запаса. В статье также приводятся практические примеры для иллюстрации теоретических положений.

**Ключевые**

**СЛОВА:**

Омонимы,Омофоны,Омографы,Лексическое значение,Сравнительная лингвистика, Семантический разница

**THE COMPARATIVE ANALYSIS OF HOMONYMS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

**Abstract:** This article is devoted to the comparative analysis of homonyms in the English and Uzbek languages. It examines the concepts of homonyms, homophones, and homographs, as well as their relationship with lexical meaning and polysemy. The study highlights the similarities and differences in spelling, pronunciation, and semantic features of homonyms in both languages. From the perspective of comparative linguistics, the research emphasizes the importance of understanding homonyms in language learning and vocabulary development. The article also provides practical examples to illustrate the theoretical discussion.

**Keywords:** Homophones, homographs, lexical meaning, semantic difference, comparative semantics

**KIRISH**

Omonimlar til tizimining muhim leksik hodisalaridan biri hisoblanadi. Ular shaklan bir xil bo'lib, ma'no jihatidan farqlanadi va nutq jarayonida turli semantik ma'nolarni bildiradi. Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lsa-da, har ikkala tilda ham omonimlar keng uchraydi. Ularning shakllanishi, qo'llanilishi hamda tasnifi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayrim hollarda omonimlar nutqda noaniqlik yoki ikki ma'nolilikni yuzaga keltirishi mumkin, bu esa kontekstning ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, omonimlarni polisemiya hodisasidan farqlash masalasi tilshunoslikda muhim nazariy muammolardan biri hisoblangan.

Til tizimida leksik hodisalar muhim o'rin egallaydi. Shunday hodisalardan biri omonimiyadir. Omonimlar shaklan bir xil, ammo ma'nosi jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lmagan so'zlardir. Omonimiya tilning tarixiy rivojlanishi, fonetik o'zgarishlar va semantik ajralish natijasida yuzaga keladi.

**USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI**

O'zbek, rus va ingliz tilshunosligida omonimiya masalasi keng o'rganilgan. Xususan, Sh. Rahmatullayev, A. G'ulomov, A. Hojiev, N. Mahmudov, B. Yo'ldoshev kabi o'zbek olimlari; V.V. Vinogradov, A.A. Reformatskiy, O.S. Axmanova, D.N. Shmelev, Yu.D. Apresyan kabi rus tilshunoslari; Stephen Ullmann, Charles F. Hockett, Leonard Bloomfield, John Lyons, David Crystal kabi ingliz tilshunoslari mazkur masalaga ilmiy yondashganlar.

Stephen Ullmann omonimiyani shaklan bir xil, ammo ma'nosi jihatdan aloqasiz bo'lgan birliklar sifatida izohlaydi. U omonimiyani polisemiya bilan farqlash zarurligini ta'kidlaydi. John Lyons esa omonimlarni semantik tizim doirasida ko'rib chiqib, ularning kontekst orqali farqlanishini tushuntiradi. Leonard Bloomfield omonimiyani alohida lug'aviy birlik sifatida baholaydi va polisemiya bilan aralashmaslik kerakligini ko'rsatadi.

Rus tilshunosi V.V. Vinogradov leksikologiya doirasida omonimlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilgan. Yu.D. Apresyan esa leksik semantika doirasida ma'no tizimini chuqur o'rgangan.

O'zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev omonimlarni tasniflash masalasiga alohida e'tibor qaratgan.

### **NATIJALAR**

Omonimiya hodisasi til tizimida nafaqat leksik, balki grammatik darajada ham namoyon bo'ladi. Grammatik omonimiya shaklan bir xil bo'lgan, biroq turli grammatik kategoriyalarga mansub yoki turli grammatik vazifani bajaruvchi birliklar orqali yuzaga keladi. Ingliz va o'zbek tillarida grammatik omonimiya turli tipologik xususiyatlar asosida shakllanadi. O'zbek tili agglutinatив, ingliz tili esa analitik til bo'lganligi sababli ularning grammatik mexanizmlari bir-biridan sezilarli farq qiladi.

### **TAHLIL**

O'zbek tilida grammatik omonimiya ko'pincha so'z turkumlari o'rtasidagi shakliy moslik, affikslarning ko'p funksiyaliligi hamda fe'l shakllarining o'zaro mos kelishi orqali yuzaga keladi. Bu masala o'zbek tilshunosi Shavkat Rahmatullayev tomonidan leksik-semantik va grammatik mezonlar asosida izohlangan. Uning ta'kidlashicha, omonim birliklarni aniqlashda nafaqat ma'no, balki grammatik kategoriya ham muhim mezon hisoblanadi.

Masalan, "ot" so'zi o'zbek tilida bir vaqtning o'zida ot (so'z turkumi sifatida – hayvon nomi) va fe'lining buyruq mayli shakli (otmoq fe'lidan) sifatida qo'llanadi. "Ot yaylovda yuribdi" gapida "ot" ega vazifasida kelgan mustaqil ot so'z turkumidir. "To'pni uzoqqa ot!" gapida esa "ot" kesim vazifasini bajarayotgan fe'ldir. Shakl bir xil bo'lsa-da, ularning grammatik kategoriyasi, sintaktik vazifasi va morfologik imkoniyatlari farq qiladi. Ot so'z turkumi egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qilishi mumkin, fe'l esa zamon va mayl kategoriyalariga ega bo'ladi.

O'zbek tilida affiks omonimiyasi ham keng uchraydi. Masalan, "-lar" qo'shimchasi ko'plik ma'nosini bildirishi mumkin ("kitoblar"), biroq ayrim hollarda hurmat yoki ehtirom ma'nosini ham ifodalaydi ("Dadamlar keldilar"). Shakl bir xil bo'lsa-da, grammatik ma'no va funksional yuklama turlicha bo'ladi. Xuddi shuningdek, "-di" qo'shimchasi o'tgan zamon ko'rsatkichi sifatida ("U keldi") va nutqda tasdiq yoki kuchaytirish ohangi sifatida ("Keldida!") ishlatilishi mumkin. Bu holat grammatik va pragmatik omonimiyaning o'zaro tutashgan shaklini yuzaga keltiradi.

Ingliz tilida esa grammatik omonimiya asosan konversiya hodisasi orqali yuzaga keladi. Bu jarayonni struktur tilshunoslik vakili Leonard Bloomfield til tizimining formal xususiyatlari bilan bog'lab tushuntirgan. Konversiya jarayonida so'z shakli o'zgarmaydi, biroq uning grammatik kategoriyasi almashadi. Masalan, "work" so'zi ot sifatida ham, fe'l sifatida ham ishlatiladi. "Work is important" gapida u ega vazifasidagi ot bo'lsa, "I work every day" gapida kesim vazifasidagi fe'ldir. Shakl o'zgarmaydi, grammatik rol esa sintaktik joylashuv orqali aniqlanadi.

Ingliz tilida morfologik shakl omonimiyasi ham mavjud. Masalan, "worked" shakli bir tomondan oddiy o'tgan zamon, ikkinchi tomondan esa sifatdosh (past participle) vazifasini bajarishi mumkin. "He worked yesterday" gapida u zamon ko'rsatkichi bo'lsa, "He has worked" gapida perfect zamon tarkibidagi sifatdoshdir. Grammatik vazifa kontekst va yordamchi fe'l orqali aniqlanadi.

Bundan tashqari, ingliz tilida yordamchi fe'llarning omonimiyasi ham kuzatiladi. Masalan, “have” fe’li mustaqil ma’noda egalikni bildirishi mumkin (“I have a book”), biroq perfect zamon tarkibida yordamchi fe’l sifatida grammatik funksiyani bajaradi (“I have finished”). Bu yerda shakl bir xil, lekin grammatik statusi farqlanadi.

Qiyosiy jihatdan qaraganda, o‘zbek tilida grammatik omonimiya ko‘proq affikslar va morfologik ko‘rsatkichlar orqali yuzaga keladi, ingliz tilida esa sintaktik joylashuv va konversiya asosiy rol o‘ynaydi. O‘zbek tilining agglutinativ tabiati grammatik ma’noni aniq affikslar orqali ifodalashga imkon beradi, ingliz tilining analitik xususiyati esa shaklning o‘zgarishligi bilan ajralib turadi. Har ikki tilda ham kontekst omonim birliklarni ajratishda hal qiluvchi vosita hisoblanadi.

**Ingliz va O‘zbek tillarida omonimlarning o‘xshash va farqli jihatlari:**

<b>Belgilar</b>	<b>O‘zbek tili</b>	<b>Ingliz tili</b>
Shakliy o‘xshashlik	Bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi	Ko‘pincha yozilishi va talaffuzi bir xil
Ma’no aloqasi	Ma’nolar o‘zaro bog‘liq emas	Ma’nolar mustaqil
Kontekst roli	Kontekst orqali farqlanadi	Kontekst asosiy ajratuvchi omil
Polisemiya bilan bog‘liqlik	Ba’zan chalkashadi	Nazariy jihatdan qat’iy farqlanadi

Tahlil natijasida quyidagilar aniqlandi: omonimiya har ikki tilda ham leksik tizimning muhim qismi hisoblanadi. Ingliz tilshunosligida omonimiya va polisemiya qat’iy ajratiladi. O‘zbek tilshunosligida omonimlar tasnifi semantik va grammatik mezonlarga asoslanadi. Kontekst omonimlarni farqlashda asosiy vosita hisoblanadi.

**MUHOKAMA**

Omonimiya hodisasi til taraqqiyoti jarayonida tabiiy ravishda yuzaga keladi. Fonetik qisqarish, tarixiy o‘zgarish va boshqa tillardan o‘zlashmalar omonimlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ingliz tilida fonetik soddalashuv kuchli bo‘lgani sababli omonimlar soni ko‘p. O‘zbek tilida esa grammatik qo‘shimchalar ma’no farqlashga yordam beradi. Shuningdek, rus tilshunosligidagi nazariy qarashlar o‘zbek tilshunosligining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

**XULOSA**

Omonimiya til tizimining muhim leksik hodisasi bo‘lib, shaklan bir xil, ammo ma’nosi jihatdan mustaqil birliklarni ifodalaydi. Ingliz va o‘zbek tillarida omonimlar mavjud bo‘lsa-da, ularni tasniflash va tahlil qilish metodlari ayrim jihatlarda farqlanadi. Kontekst omonimlarni aniqlashda asosiy vosita hisoblanadi. Nazariy jihatdan esa omonimiyani polisemiya bilan ajratish muhim ilmiy masala bo‘lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ullmann S. Semantics: An Introduction to the Science of Meaning. – Oxford, 1962.

2. Lyons J. Semantics. – Cambridge, 1977.
3. Bloomfield L. Language. – New York, 1933.
4. Виноградов В.В. Русский язык. Лексикология и лексикография. – М., 1947.
5. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. – М., 1974.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент.
7. Гуломов А. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент.

---

Sobirova Feruza Islomjon qizi



---

### “BIZ” VA “ULAR” OPPOZITSIYASI ORQALI MANIPULYATSIYA: PRAGMATIK YONDASHUV

<https://zenodo.org/records/19842488>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada diskursda keng qoʻllaniladigan “biz” va “ular” oppozitsiyasi orqali amalga oshiriladigan manipulyativ strategiyalar pragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda siyosiy, ijtimoiy va ommaviy axborot vositalari diskurslarida ushbu oppozitsiyaning kommunikativ vazifalari, maqsadli auditoriyaga psixologik taʼsir koʻrsatish mexanizmlari hamda nutq aktlari bilan bogʻliqligi yoritiladi. Shuningdek, “biz” konsepti orqali ijobiy identifikatsiya, “ular” konsepti orqali esa salbiy obraz shakllantirish jarayoni pragmatik omillar nuqtayi nazaridan izohlanadi. Tadqiqot natijalari manipulyativ diskursni aniqlash va tahlil qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit soʻzlar:** diskurs, pragmatika, manipulyatsiya, “biz”, “ular”, identifikatsiya

### МАНИПУЛЯЦИЯ ЧЕРЕЗ ОППОЗИЦИЮ «МЫ» И «ОНИ»: ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

**Аннотация:** В данной статье с позиций прагматического подхода анализируются манипулятивные стратегии, реализуемые посредством оппозиции «мы» и «они», широко используемой в дискурсе. В исследовании освещаются коммуникативные функции данной оппозиции в политическом, социальном и медийном дискурсах, механизмы психологического воздействия на целевую аудиторию, а также её взаимосвязь с речевыми актами. Кроме того, с точки зрения прагматических факторов объясняется процесс формирования позитивной идентификации посредством концепта «мы» и создания негативного образа через концепт «они». Результаты исследования имеют важное теоретическое и практическое значение для выявления и анализа манипулятивного дискурса.

**Ключевые слова:** дискурс, прагматика, манипуляция, «мы», «они», идентификация